

## O'QUVCHILARNING NUTQIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVODIDAKTIK IMKONIYATLARI

**Abdiraxmonova Visola Toxir qizi**

*O'zbekiston Milliy Universiteti 1-kurs magistranti*

*Abdirahmonovavisola06@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili darslarida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda frazeologik birliklarning o'rni tahlil qilinadi. Iboralarning lingvokulturologik xususiyatlari, ularning nutq boyligi va ta'sirchanligini ta'minlashdagi ahamiyati hamda dars jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Frazeologiya, nutq madaniyati, lingvokulturologiya, idiomalar, kommunikativ ko'nikma, ta'lim metodikasi, konnotativ ma'no.*

**Abstract:** *The article analyzes the role of phraseological units in developing the communicative competence of students in native language classes of secondary schools. It highlights the linguacultural characteristics of idioms, their importance in ensuring speech richness and effectiveness, as well as modern pedagogical technologies used in the educational process.*

**Keywords:** *Phraseology, speech culture, linguaculturology, idioms, communicative skill, educational methodology, connotative meaning.*

**Аннотация:** *В статье анализируется роль фразеологических единиц в развитии коммуникативной компетенции учащихся на уроках родного языка в общеобразовательных школах. Освещены лингвокультурологические особенности идиом, их значение в обеспечении богатства и выразительности речи, а также современные педагогические технологии, используемые в учебном процессе.*

**Ключевые слова:** *Фраzeология, культура речи, лингвокультурология, идиомы, коммуникативный навык, методика обучения, коннотативное значение.*

### **Kirish**

Til nafaqat aloqa vositasi, balki millatning madaniyati va tafakkur tarzi aks etadigan ko'zgudir. O'zbek tili o'zining boy frazeologik qatlami bilan ajralib turadi. O'quvchilarning nutqini o'stirish, ularda so'z boyligini oshirish va fikrni obrazli ifodalash ko'nikmasini shakllantirishda frazeologizmlar (iboralar) o'ziga xos o'rin tutadi. Hozirgi davr ta'limining ustuvor vazifasi — o'quvchini shunchaki grammatik qoidalarni biladigan emas, balki tilning boy imkoniyatlaridan nutqiy vaziyatga mos ravishda foydalana oladigan shaxs qilib tarbiyalashdir.

## Asosiy qism

### 1: Frazelogizmlarning nutqiy-estetik vazifalari

Frazelogizmlar nutqqa tayyor holda olib kiriladigan, ma'nosi qismlarga ajralmaydigan ko'chma ma'noli birliklardir. Ularning o'quvchi nutqi uchun muhimligi quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

**Obrazlilik va emotsionallik:** Iboralar nutqning "bo'yog'i" hisoblanadi. Masalan, "juda xursand bo'ldi" deyish o'rniga "boshi ko'kka yetdi" iborasini qo'llash nutqqa ijobiy emotsiya va obrazlilik bag'ishlaydi. "Olamni boshiga ko'tarmoq" iborasi "kuchli shovqin qilmoq" yoki "haddan tashqari xursand bo'lib ketmoq" (shodlik yoki hayajon emotsiyasi), "og'zi qulog'ida" iborasi "juda xursand, baxtiyor" (vizual obrazli), "tili aylanmayapti" iborasi "gapirishga zo'rg'a jur'at qilmoq" yoki "qo'rquvdan tutilib qolmoq", "yuragi qinidan chiqib ketayozdi" iborasi "qattiq hayajonlanish yoki qo'rqish" (fiziologik holat orqali obraz yaratish). "Dunyoni suv bossa, to'pig'iga chiqmaslik" iborasi "haddan tashqari beparvolik va xotirjamlik" shu kabi ma'nolarda keladi.

**Milliy-madaniy bo'yoq:** Iboralar tarkibidagi so'zlar xalqning turmush tarzi, an'analari va tarixini o'zida saqlaydi. "Oq fотиha bermoq", "nonini yarimta qilmoq",

"boshini ikta qilmoq" kabi birliklar orqali o'quvchi o'zbek xalqining mentalitetini chuqurroq anglaydi.

**Nutqiy tejamkorlik:** Bir necha gap bilan tushuntirilishi lozim bo'lgan holat bitta ibora orqali aniq va lo'nda ifodalanadi. "Oyog'i uzildi" iborasi "ilgari muntazam kelib turgan odam endi kelmay qo'ydi, aloqani butunlay to'xtatdi". "Boshiga yetmoq" iborasi "kimnidir o'limiga sabab bo'lmoq yoki biror narsani butunlay yo'q qilmoq, xarob qilmoq". "Qulog'i og'ir" iborasi "uning eshitish qobiliyati past, gapni yaxshi eshitmaydi, balandroq gapirish kerak" shu kabi bir qancha iboralarni ko'rishimiz mumkin.

### 2. Metodik yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalar

O'quvchilar nutqida iboralarni faollashtirish uchun an'anaviy yodlatish usulidan voz kechib, interfaol metodlarga tayanish lozim:

**Kontekstual tahlil:** O'quvchiga ibora berilib, uni turli nutqiy vaziyatlarda (rasmiy, badiiy, so'zlashuv) qo'llash topshirig'i beriladi.

**"Frazelogik rebuslar":** Iboralarning ma'nosi rasmlar orqali beriladi. Bu o'quvchining vizual xotirasini va mantiqiy fikrlashini charxlaydi.

**Sinonimik qatorlar bilan ishlash:** Masalan, "qo'rqmoq" fe'lining iboraviy sinonimlarini topish: yuragi orqasiga tortib ketmoq, zaxrasi yorilmoq, oyog'i qaltiramoq. Bu mashq o'quvchiga nutqiy vaziyatga ko'ra eng mos birlikni tanlash imkonini beradi.

### TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

O'tkazilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, nutqida frazeologizmlardan o'rinli foydalanadigan o'quvchilarning matn tuzish qobiliyati boshqalarga qaraganda 30-40% yuqori bo'ladi. Iboralar o'quvchining lug'at boyligini nafaqat miqdoran (so'z soni), balki sifat jihatidan ham boyitadi. Biroq, o'quvchilar ba'zan iboralarning ma'nosini noto'g'ri tushunish yoki ularni o'rinsiz qo'llash (uslubiy xato) hollariga yo'l qo'yadilar. Shuning

uchun ona tili darslarida "Frazeologik lug'atlar bilan ishlash" ko'nikmasini alohida shakllantirish zarur.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, frazeologizmlar o'quvchi nutqining ravonligi, mantiqiyligi va ta'sirchanligini ta'minlovchi eng kuchli vositadir. Ularni tizimli ravishda o'rgatish orqali biz o'quvchilarning nafaqat nutqiy ko'nikmalarini, balki ma'naviy-estetik dunyoqarashini ham shakllantiramiz. Zero, o'z tilining boyligini chuqur his qilgan o'quvchi kelajakda o'z fikrini har qanday auditoriyada ishonchli bayon eta oladi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik izohli lug'ati. – T.: Sharq, 1992.
- 2.Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. – Samarqand, 1998.
- 3.Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologiyasi shakllanishi masalalari. – T., 1999.
- 4.Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab... – T., 2012.
- 5.O'zbek tili darsliklari (5-11-sinflar). Toshkent: Respublika ta'lim markazi. 2022-yil.
- 6.Scientific Journal Articles: "The role of phraseological units in developing communicative competence", International Journal of Linguistics and Education, 2023.
- 7.Ona tili darsliklari (7-8-sinflar). Toshkent: Respublika ta'lim markazi. 2022.-224 b.